BOSHLANG’ICH SINFLARDA OLMOSH SO‘Z TURKUMINI O‘RGATISH USULLARI

Muhiddinova Mehriniso Akmaljon qizi
Guliston davlt pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari olmosh so‘z turkumini yaxshi o‘rganishlari va tushunishlari uchun ona tili darslari davomida qo‘llanilishi kerak bo‘lgan metodlar va usullar keltirilgan.Bundan tashqari maqolada olmosh so‘z turkumi hamda metod tushunchalariga ham alohida ta’rif berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Usul, metod, so‘z turkumi ,olmosh, olmoshning turlari, o‘rgatish, o‘qitish.

Abstract: This article presents the methods and methods that should be used during the mother tongue lessons so that elementary school students can learn and understand the pronouns well. In addition, the article covers the concepts of the pronouns and method. is also defined separately.

Key words: Method, method, vocabulary, pronoun, types of pronoun, teaching, teaching.

Hozirgi kunda hech kimga sir emaski barcha sohalarda juda katta o‘zgarishlar va islohotlar olib borilmoqda.Ta’lim sohasi ham bu kabi islohotlardan chetda qolib ketgani yo‘q.Bunday o‘zgarishlar ta’limning barcha yo‘nalashlari qamrab olgan.Shu qatori boshlang‘ich ta’lim sohasida ham qator o‘zgarishlar ko‘zga yaqqol tashlanadi. Bu o‘zarishlarning barchasi bolalarning sifatli va yaxshi ta’lim olishlari uchun amalga oshirilmoqda.

Ona tili darslari boshlang‘ich ta’lim sohasida katta ahamiyatga ega hisoblanadi.Ona tili fanini o‘qitishning yetakchi maqsadi-shaxsiy fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri, aniq va ravon bayon qila oladigan, kitobxonlik madaniyatiga ega, mustaqil va ijodiy fiklaydigan, o‘zgarishlar haqida fikr yurita oladigan, muloqot qilish va nutq madaniyati shakllangan shaxsni yetishtirishdan iborat.Bu maqsadga erishish uchun esa boshlang‘ich ta’lim o‘qituvhilariga uda katta mas’uliyat yuklanadi hamda ulardan chuqur bilim, mas’uliyat, mahorat talab qiladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.Bu kabi talablarga javob berish uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘zlari dars beradigan fanlarini chuqur egallashlari, bu fan doirasidagi eng so‘nggi yangiliklardan muntazam ravishda xabardor bo‘lib turishlari, darslarda foydalaniladigan turli yangi texnologiyalardan foydalanishni yaxshi bilmog‘i, dars uchun mo‘ljallangan turli metod va texnologiylar bilan qurollanmog‘i shart hisoblanadi.

Metod (yun. "metodos" — bilish yoki tadqiqot yo‘li, nazariya, ta’limot) — voqelikni amaliy va nazariy egallash, o‘zlashtirish, o‘rganish, bilish uchun yo‘l yo‘riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli.

So‘z turkularini o‘rganish mavzularini o‘rganish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini o‘stirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bu mavzular orqali o‘quvchilarning so‘z boyligi yanada oshadi.Boshlang‘ich sinfda so‘z turkumlaridan ot, sifat, son, fe’l va olmoshlar nazariy va amaliy jihatdan o‘rganiladi.Olmosh so‘z turkumi ham ona tili nazariyasida alohida o‘ringa ega mavzulardan biri hisoblanadi.Gap ichida ot, sifat, son, ravish, ba’zan so‘z birikmasi va gap o‘rnida qo‘llana oladigan, atash ma’noga ega bo‘lmagan so‘z turkumi olmosh deyiladi.Olmoshlar ko‘p hollarda boshqa so‘z turkumlari o‘rnida almashib kela oladi.Bu degani olmoshlar nutqdagi takrorlarni oldini oladi degani. Yuqordagi vazifalarni bajarishiga ko‘ra olmoshlarning yettita ma’no turlari mavjud hisoblanadi:

1)kishilik olmoshlari
2)o‘zlik olmoshi
3)ko‘rsatish olmoshlari
4)so‘roq olmoshlari
5)belgilash olmoshlari
6)gumon olmoshlari
7)bo‘lishsilik olmoshlari

Olmosh so‘z turkumini boshlang‘ich sinf o‘quv dasturi va darsliklarini talil qilib chiqsak, bu so‘z turkumi haqida boshqa so‘z turkumlariga nisbatan kam ma’lumotlar bor ekanligini ko‘ramiz.Olmosh so‘z turkumi haqida boshlang‘ich sinfning 4-sinf darsligida ma’lumot berilgan. 4-sinf darsligida yuqorida ta’kidlab o‘tgan olmosh turlaridan faqat kishilik olmoshlari berilgan. O‘quv dasturi bo‘yicha kishilik oloshlarini o‘rgatish uchun 13soat berilgan.Bunda olmosh so‘z turkumiga yetarli ma’lumot berilmaydi. Badiiy asarlardan o‘quvchilarning o‘zlari tomonidan tuzilgan misollar yordamida o‘rgatiladi.Chunki o‘quvchilar aynan shu darslargacha kishilik olmoshlarini nutqlarida juda ko‘p qo‘llab kelishgan. Olmoshlarini o‘rgatish jarayonida o‘quvchilaarda quyidagi bilimlar shakllantiriladi:

Kishilik olmoshlari nutq so‘zlanayotgan paytda ishtirok etgan yoki tilga olingan shaxs va narsaga ishora qiluvchi so‘zlar hisoblanadi.Kishilik olmoshlari asosan ot o‘rnida qo‘llanadi va uch shaxsni ifodalaydi: 1-shaxs (men) – so‘zlovchi, 2-shaxs (Sen) – tinglovchi, 3-shaxs (u)o‘zga shaxsni ifodalaydi.

Sh a x s	B i r l i k	K o‘ p l i k
1- shaxs (so‘zlovchi)	men	biz
2- shaxs (tinglovchi)	sen	siz
3- shaxs (o‘zga)	u	ular

Ko‘rsatish olmoshi. Ko‘rsatish olmoshi shaxs, narsa yoki belgini ko‘rsatish, ta’kidlash uchun qo‘llaniladi.Olmoshning ushbu turiga: u, bu, shu, usha, mana shu, ushbu kabi so‘zlarni o‘z ichiga oladi.Ko‘rsatish olmoshlari tuzilishiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: 1) sodda ko‘rsatish olmoshlari: u, bu, shu, o‘sha;2) qo‘shma ko‘rsatish olmoshlari: mana shu, ana shu, mana bu, anavi (ana u).

So‘roq olmoshlari. Nutq jarayonida ishtirok etuvchilarga ma’lum bo‘lmagan narsani aniqlash uchun qo‘llaniladigan olmoshlar so‘roq olmoshlari deb ataladi.So‘roq olmoshlari shaxsga (kim), narsaga (nima), belgiga (qaysi, qanday), miqdorga (necha, qancha), vaqtga (qachon), maqsad va sababga (nega, nimaga) va o‘ringa (qani) kabi so‘roqlarni beradi.

O‘zlik olmoshi aniq yakkalikni ajratish, belgilash va ko‘rsatish uchun xizmat qiladi. Olmoshning bu turi o‘z so‘zidan iborat hisoblanadi. O‘z olmoshi har uchala shaxs, birlik va ko‘plikdagi kishilik olmoshlari o‘rnida ishlatilib, ko‘pincha shaxsni, ba’zan narsani ko‘rsatib keladi.

Belgilash olmoshlari narsa va shaxslarning to‘dasini, jamini bildirib keladi yoki ularni ayirib, ta’kidlab ko‘rsatish uchun xizmat qiladi. Shunga ko‘ra ularni ikki kichik guruhga, ya’ni jamlash va belgilash olmoshlariga ajratish mumkin. Birinchi guruhga kiradigan olmoshlar jamlikni ifodalasa, ikkikchi guruhga kiradigan olmoshlar narsani qisman jamlash bilan birga ta’kidlab, belgilab, aniqlab ko‘rsatib keladi.

Bo‘lishsizlik olmoshi. Bo‘lishsizlik olmoshlari narsa yoki belgiga nisbatan inkor ma’nosini bildirib keladi. Bu olmoshlar ishtirok etgan gapning kesimi bo‘lishsiz shaklda keladi va inkor mazmunli gap vazifasini bajaradi. Bo‘lishsizlik olmoshlari tuzilishiga ko‘ra ikki turli bo‘ladi: a) tub shaklidagi bo‘lishsizlik olmoshi; b) qo‘shma so‘z shaklidagi bo‘lishsizlik olmoshi.

Gumon olmoshlari. Gumon olmoshlari narsa, belgi yoki hodisa haqidagi noaniq tasavvurni bildirib keladi. Bu olmoshlar asosan ot va sifat o‘rnida qo‘llanadi va –alla, -dir kabi qo‘shimchalari orqali hosil qilinadi.

Ona tili darslari innovatsion texnologiya asosida tashkil qilinganda, asosan, o‘quvchilarda hamkorlikda ishlash ko‘nikmasi shakllanadi, umumiy vazifalar yechimini topishda bir-birlariga ko‘mak beradilar, o‘quvchilarda ijodiy va mustaqil fikrlash malakalaritarkib topadi, o‘quvchilar o‘z ishlari natijasiga, o‘qishga, ta’lim olishga shaxsan mas’ullikni his qiladilar. Quyida innovatsion texnologiyalardan ba’zilarini keltiramiz va sharhlaymiz:

1. “Aqliy hujum” texnologiyasi.
2. “Klaster yoki tarmoqlanish” texnologiyasi.
3. “Kichik guruhlarda ishlash yoki hamkorlik” texnologiyasi.
4. “Musobaqa” texnologiyasi.
5. “Idrok xaritasi” texnologiyasi.
6. “FSMU” texnologiyasi.
7. “Sinkveyn” texnologiyasi.
8. “Seminar-trening” texnologiyasi.
9. “Ajurli arra” texnologiyasi.
10. “Baliq skeleti” texnologiyasi.
11. “Qaysi biri ortiqcha?” texnologiyalaridir.

Olmosh so‘z turkumi mavzularini o‘rgatishda zamonaviy interfaol usullarning o‘rni bor hisoblanadi. Maktabda “Aqliy hujum” texnologiyasidan o‘rinli va maqsadga muvofiq foydalanish orqali darsni yanada qiziqarli va o‘quvchilar faoliyatini esa oshirish imkoniga ega bo‘ladi. Shu o‘rinda “Aqliy hujum” texnologiyasi haqida batafsil ma’lumot berib o‘tmoqchimiz: Darsning

uyga vazifani so‘rash va o‘tilganlarni mustahkamlash bosqichlarida bu texnologiyadan unumli foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.Masalan, o‘tgan mavzu olmosh bo‘ladigan bo‘lsa, o‘quvchilarga tayyorlanib kelishi uchun taxminiy savollar oldindan taqdim etiladi. Savollar o‘qituvchi tomonidan beriladi. Guruhdagi o‘quvchilarning tez va aniq javobi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Qaysi guruhdan o‘quvchi birinchi bo‘lib to‘g‘ri javob bersa shu javob rag‘bat olish imkonini qo‘lga kiritadi. Natijalar jamlanib, g‘olib guruh aniqlab taqdirlanadi.

“Baliq skeleti” texnologiyasi. “Baliq skeleti” texnologiyasidan ham foydalasa bo‘ladi. Masalan, 4-sinfda o‘qitiladigan olmosh so‘z turkumiga oid mavzularni tushuntirish va mustahkamlash jarayonida buni qo‘llash orqali darsning yanada samarador bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Umumiy o‘rta ta’limning Davlat Ta’lim standarti va O‘quv dasturi. Boshlang‘ich ta’lim. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi Vazirligi Respublika Ta’lim Markazi. Toshkent-2017
2. Tal’at G’afforova “Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar”. Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari hamda boshlang‘ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish yo‘nalishi uchun o‘quv qo‘llanma. “Tafakkur” nashriyoti. Toshkent-2011.
3. Hamrayev M. “Ona tili “ “Sharq” nashriyot-matbaa AK. Toshkent.2012-yil.
4. Qosimova .K va boshqalar. ”Ona tili o‘qitish metodikasi” Boshlang‘ich ta’lim fakultetlari talabalari uchun darslik. ”Nosir” nashriyoti. Toshkent-2009.